

KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK TARAQQIYOTI VA YOSH BOSQICHLARI

Tursunboyeva Nigora Abdaliyevna

Annotatsiya. Maqolada kichik yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti, shaxsiy va aqliy rivojlanish jarayonlarining bosqichma-bosqich kechishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda dunyo olimlari hamda o'zbek olimlarining psixologlarning bola tafakkuri va shaxs shakllanishiga oid nazariy qarashlari asos qilib olingan. Shuningdek, bola faoliyatining turli turlari – o'yin, muloqot va bilish faoliyati – uning ruhiy rivojida tutgan o'rni yoritilgan. Maqolada yosh davrlari psixologiyasining amaliy ahamiyati, tarbiyaviy jarayonlarda bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: psixik taraqqiyot, yosh bosqichlari, bola psixologiyasi, shaxs rivoji, o'yin faoliyati, tafakkur, emotsional rivojlanish, kognitiv jarayonlar, pedagogik psixologiya, individual xususiyat.

Kichik yoshdagi bolalar psixologiyasi – inson psixikasining dastlabki taraqqiyot bosqichlarini o'rganadigan muhim soha bo'lib, u bolaning tug'ilganidan boshlab maktabga kirish davrigacha bo'lgan ruhiy rivojlanish jarayonlarini o'rganadi [1]. Mazkur davr bolaning psixik va shaxsiy shakllanishi uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Shuning uchun, bolalar psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishda asosiy ahamiyat kasb etadi [2].

1. Maktabgacha yosh davrining psixik xususiyatlari. Ontogenez jarayonida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yosh davri deb

ataladi. Bu davr bola rivojlanishida keskin sifat o'zgarishlari sodir bo'ladigan bosqich bo'lib, u quyidagi uch kichik davrga bo'linadi: Kichik maktabgacha yosh (3-4 yosh) – bola mustaqil harakat qilishga, atrofdagi buyumlar bilan faol muloqotga kirishishga intila boshlaydi. O'rta maktabgacha yosh (4-5 yosh) – bolaning idrok, fikrlash, xotira kabi psixik jarayonlari faol rivojlanadi; muloqotga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Katta maktabgacha yosh (6-7 yosh) – bola shaxs sifatida shakllanib boradi, o'yin faoliyatidan o'rganishga o'tish boshlanadi. Ushbu bosqichlarda bolada psixik jarayonlarning differensiallashuvi, ya'ni tafakkur, diqqat, xotira, emotsional-irodaviy sohalarining bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatiladi [3].

2. Bolaning psixik taraqqiyotida faoliyat va muloqotning roli Bolaning psixik rivojlanishida uning faoliyati va atrof bilan muloqoti asosiy o'rin tutadi [4]. Har qanday faoliyat o'z oldiga maqsad qo'yadi, va bu maqsadni anglash bolada ong shakllanishi bilan bog'liq. Ong esa insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi asosiy sifat bo'lib, u ijtimoiy mehnat, til va madaniy muhit orqali rivojlanadi. Mashhur olim Charlz Darvin bolaning psixik rivojlanishini ilmiy asosda kuzatgan ilk tabiatshunoslardan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning kundalik tarzidagi kuzatishlari bola ongi shakllanishi jarayonini tushunishda muhim tarixiy manba hisoblanadi [5].

3. Ong va uning rivojlanish bosqichlari. Inson ongi – bu faqat bilimlar yig'indisi emas, balki o'z-o'zini anglash va atrofdagi olamni tushunish vositasidir. Ong quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: Bilimlar majmui – bola dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirib boradi. O'z-o'zini anglash – bolaning o'z "men"i haqida tasavvuri paydo bo'ladi [6]. Maqsad va motivlarning shakllanishi – faoliyatga

ongli ravishda kirishish ehtiyoji tug'iladi. Bu jarayonlar bolaning o'yin, muloqot va atrof muhit bilan o'zaro ta'siri orqali amalga oshadi. Shunday qilib, ongning shakllanishi ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va tarbiya bilan chambarchas bog'liq.

4. Bolalar psixologiyasining ilmiy vazifalari. Bolalar psixologiyasi quyidagi ilmiy vazifalarni hal etishga xizmat qiladi: Turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash; Bola psixikasining nerv-fiziologik asoslarini o'rganish; Psixik rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash; Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda yordam berish [7].

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi. Maktabgacha yosh – bu nafaqat psixik jarayonlar, balki shaxs sifatida bola rivojlanishining muhim bosqichidir. Bu davrda bola o'zining individual xususiyatlarini anglashga, o'zini boshqalar bilan taqqoslashga, o'z harakatlari va his-tuyg'ularini baholashga harakat qiladi [8]. Psixologik tadqiqotlar ushbu davrni shaxsiy shakllanish jarayoni nuqtai nazaridan quyidagi uch bosqichga ajratishni taklif qiladi: 3-4 yosh – bola emotsional o'z-o'zini boshqarishni egallay boshlaydi, hissiy holatini tartibga solishga harakat qiladi. 4-5 yosh – axloqiy o'z-o'zini boshqarish shakllana boshlaydi, ya'ni bola harakatlarining ijtimoiy maqbulligini tushuna boshlaydi. 6-7 yosh – ishchanlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi ijtimoiy faol shaxs sifatlarini namoyon etadi. Bu bosqichlar davomida bolalarda axloqiy me'yor va qadriyatlarga nisbatan munosabatlar shakllanadi [9]. Bu tushunchalar dastlab kattalar – ota-onalar, tarbiyachilar, pedagoglar, shuningdek tengdoshlar orqali shakllanadi. Axloqiy qarashlar, odatda, muloqot, kuzatish, taqlid

qilish orqali, ayniqsa kattalarning baholari, maqtovlari va tanqidlari ta'sirida mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, bolalarda baho olishga bo'lgan ichki ehtiyoj kuchayadi. Bu baholar bola uchun tashqi rag'batlantiruvchi vosita bo'libgina qolmay, uning shaxsiy motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan munosabati va kelajakdagi kasb tanlashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotga kirishishdagi motivlar tobora murakkablashadi. Ular orasida quyidagilar ajralib turadi: Shaxsiy muloqot motivlari – bolani o'z ichki holatlari, his-tuyg'ulari bilan bog'liq holatlar tashvishga soladi. Ishbilarmonlik motivlari – bolaning harakatlari muayyan vazifani bajarish, o'zini foydali his qilish bilan bog'liq. Bilim olish motivlari – bu bola tabiatiga xos qiziquvchanlik asosida rivojlanadi. O'zini namoyon qilish motivlari – bola syujetli-rolli o'yinlarda rahbarlik qilish, boshqalar orasida ajralib turish istagida bo'ladi. Bu motivlar bola shaxsiyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa syujetli-rolli o'yinlar, bolalarning ijtimoiy rol va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshning so'nggi bosqichiga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq axloqiy qarashlar va munosabatlar tizimi shakllanadi. Ular hayvonlar, buyumlar va boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini tushunib boradilar. Bu holat bolaning:

Mehribonlik,

Diqqat-e'tibor,

Mas'uliyat,

Boshqalarga yordam berish singari shaxsiy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bolalar o'z harakatlarini anglay boshlaydi. 3,5 yoshda ular muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka munosabat bildirib boshlaydi. 4 yoshga kelib, o'z imkoniyatlarini real baholay oladi [10]. Ammo 4-5 yoshdagi bolalar hali o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini to'liq idrok etib olmaydi, shuningdek o'ziga nisbatan mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Katta maktabgacha yoshda esa o'z-o'zini anglash bosqichi boshlanadi. Bola o'zining o'tmishi va kelajagi haqida fikr yuritib boshlaydi. Bu holat, odatda, quyidagi kabi savollar orqali namoyon bo'ladi: "Men kichkina bo'lganimda qanday edim?" "Men katta bo'lganimda kim bo'laman?" Ushbu savollar bolaning kelajakka yo'naltirilgan o'zini anglash va ijtimoiy identifikatsiya qilishga intilayotganini ko'rsatadi. Bola bu davrda kuchli, jasur, mehribon, aqlli kabi ijobiy sifatlarni egallashga harakat qiladi, ya'ni ijtimoiy qabul qilingan ideal obrazlar bilan o'zini tenglashtirishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yosh bolalikning psixik va shaxsiy rivojlanishida poydevor bo'ladigan muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolada emotsional barqarorlik, axloqiy qadriyatlar, o'zini anglash, muloqotga kirishish, shuningdek shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarlik sifatida zarur bo'lgan ko'nikmalar shakllanadi. Psixologik rivojlanishga katta yoshdagilar – ota-onalar, tarbiyachilar, pedagoglar tomonidan beriladigan baho, maqto'v va tanqidlar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bolalarning shaxsiy rivojlanishini ilmiy asosda tushunish va ularga to'g'ri yondashuvni tanlash – ta'lim-tarbiya tizimining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Выготский Л. С. Проблемы возраста и развития психики. – М.: Педагогика, 1984.
2. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.: Педагогика, 1997.
3. Эльконин Д. Б. Психология развития ребёнка. – М.: Академия, 2001.
4. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2004.
5. Bo'ronova N. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
6. Raximova S. Psixik taraqqiyot bosqichlari va ularning xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Vohidov M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti nashriyoti, 2016.
8. Erikson E. Childhood and Society. – New York: W.W. Norton & Company, 1963.
9. Cole M., Cole S. The Development of Children. – New York: Worth Publishers, 2001.
10. Berk L. E. Child Development. – Boston: Pearson Education, 2018.